Аннотация. В этой статье анализируются теоретические основы и практические механизмы инновационной трансформации традиционных ремесел через цифровые платформы. Изучается влияние цифровых технологий, в том числе электронной торговли, онлайн-маркетинга, цифрового дизайна и информационных платформ на деятельность субъектов ремесленничества. В ходе исследования цифровизация ремесленничества обоснована как важный фактор повышения экономического потенциала региона, усиления конкурентоспособности и обеспечения занятости. Результаты статьи имеют научно-практическое значение для разработки стратегий регионального инновационного развития.

Ключевые слова: ремесленничество, цифровые платформы, инновационная трансформация, потенциал региона, цифровая экономика.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekistonda barcha sohalarni tubdan isloh qilishga doir siyosiy irodaning kuchaygani kuzatilmoqda. Ayniqsa, mamlakat Prezidenti rahnamoligida olib borilayotgan strategik islohotlarning markazida inson manfaatlari va qadriyatlarini yuksaltirish, fuqarolar uchun qulay sharoitlar yaratish, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim o'rin egallamoqda. Ushbu yondashuv jamiyatni modernizatsiya qilish, davlat va ijtimoiy institutlar faoliyatini erkinlashtirish va yangilash yo'lida mustahkam poydevor yaratmoqda.

Ayni vaqtda O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida hunarmandchilik faoliyatini raqamlashtirish, uni transformatsiya qilish va innovatsion texnologiyalar orqali modernizatsiya qilish dolzarb vazifaga aylangan. Bu jarayon nafaqat bandlik darajasini oshirish, balki iqtisodiyotning tarkibiy qismlarini diversifikatsiyalash, eksport salohiyatini kuchaytirish va hududiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, oilaviy hunarmandchilikni rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ichki imkoniyatlar hisobiga faollashtirish mumkin.

Mamlakatimizda hunarmandchilik sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida quyidagi strategik tadqiqot yo'nalishlari belgilab olingan: birinchidan, oilaviy hunarmandchilikning iqtisodiyotdagi real



o'rnini baholash va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash; ikkinchidan, raqamli transformatsiya jarayonida hunarmandchilikning bandlik siyosati va mehnat munosabatlariga ta'sirini o'rganish; uchinchidan, oilaviy korxonalardagi boshqaruv madaniyati, merosni saqlash, gender tengligi va ijtimoiy kapitalni mustahkamlashga qaratilgan tadqiqotlarni kengaytirish.

Shuningdek, oilaviy hunarmandchilikni chuqur tahlil qilishda mavjud muammolarga tizimli yondashuv talab etiladi. Bu esa sohani tashkil etishning iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish, hududiy ixtisoslashuv asosida hunarmandchilik faoliyatini rejalashtirish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish hamda davlat tomonidan yaratilgan qulay shart-sharoitlardan to'liq foydalanish imkonini beradi.

So'nggi yillarda butun dunyoda sanoat inqilobining yangi bosqichi — raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni tezlik bilan kechmoqda. Bu esa innovatsion yondashuvlarga asoslangan iqtisodiy modelni shakllantirishni talab qiladi. Masalan, Shumpeterning innovatsion nazariyasi, D. Bellning postindustrial jamiyat konsepsiyasi, Xokins tomonidan ilgari surilgan bilimlar iqtisodiyoti nazariyasi, Benklarning "Digital Economy" tushunchasi va Tapsskott tomonidan rivojlantirilgan raqamli iqtisodiyot modeli — barchasi bugungi kunning iqtisodiy realliklarini chuqur ifodalaydi. Bu yondashuvlar raqamlashtirish orqali iqtisodiy o'sish, samaradorlik va barqarorlikka erishish mumkinligini ilmiy jihatdan isbotlab bermoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyotning asosiy ustunliklaridan biri - axborot oqimlarini tartibga solish va shaffof boshqaruv tizimini shakllantirishdir. Shu sababli, hunarmandchilik faoliyatini elektron pasportlashtirish, tovar va xizmatlar hajmi, qiymati, taklifi va boshqa muhim ko'rsatkichlarni raqamli ma'lumotlar bazasiga joylashtirish sohani zamonaviylashtirishda muhim omil hisoblanadi. Bu kabi bazalar xalqaro tajribada, xususan, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniya kabi texnologik rivojlangan davlatlarda keng qo'llanilmoqda.

UNESCO (2013) hisobotlarida hunarmandchilikni madaniy meros sifatida saqlash bilan bir qatorda, zamonaviy texnologiyalar orqali uni iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish muhimligi ko'rsatib o'tilgan. OECD (2019) tadqiqotlarida esa raqamli platformalar kichik biznes va hunarmandchilik subyektlari uchun yangi bozorlar ochib beruvchi samarali vosita sifatida baholangan.

Kotler P. va Keller K. L. (2016) [1] raqamli marketing va brendingning mahsulot qiymatini oshirishdagi rolini asoslab bergan bo'lib, ushbu yondashuv hunarmandchilik mahsulotlarini global bozorda targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Evans D. S. va Schmalensee R. (2016) [2] platforma iqtisodiyoti nazariyasini rivojlantirib, raqamli platformalar ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi bevosita aloqani kuchaytirishini ilmiy jihatdan isbotlagan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar misolida Kaplinsky R. va Morris M. (2001) [3] qiymat zanjiri konsepsiyasi orqali hunarmandchilik mahsulotlarining raqamlashtirish natijasida qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini tahlil qilgan. UNCTAD (2021) [4] hisobotlarida elektron savdoning kichik ishlab chiqaruvchilar, jumladan, hunarmandlar daromadlarini oshirishdagi o'zni alohida qayd etilgan.

Mahalliy olimlardan Abdurahmonov Q. X. (2019) [5] hunarmandchilik va kichik biznesni hududiy rivojlantirishning muhim omili sifatida baholagan. Tursunov B. O. (2020) [6] tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlarini transformatsiya qilish mexanizmlari yoritilgan. Rasulov A. A. (2021) [7] hunarmandchilik faoliyatini innovatsion rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlovi va raqamli infratuzilmaning ahamiyatini asoslab bergan.

N. I. Asqarovaning ta'kidlashicha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hududlar kesimida innovatsion rivojlantirish jarayonlarini ekonometrik modellar orqali tahlil qilish hunarmandchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanish omillarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar so'rovnoma, yarim tuzilgan intervyu, rasmiy statistika va raqamli platformalar faoliyatiga oid ochiq ma'lumotlar orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, kontent-tahlil hamda iqtisodiy-mantiqiy umumlashtirish usullari yordamida tahlil qilindi. Tahlil jarayonida hunarmandchilik subyektlarining raqamli platformalardan foydalanish darajasi, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va innovatsion transformatsiya mexanizmlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamlashtirish jarayoni orqali xorijiy investorlar bilan ishonchli axborot almashinuvi shakllanadi. Bu esa hunarmandlar uchun yangi bozorlarga chiqish, xalqaro loyihalarda ishtirok etish, eksportni ko'paytirish va daromadlarni diversifikatsiyalash imkonini beradi. Shuningdek, davlat ishtirokidagi kompaniyalarni



raqamlashtirish orqali yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishiga bevosita ta'sir etish mumkin. Demak, davlat sektori raqamli transformatsiyaning drayveri sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan islohotlar strategiyasida raqamli iqtisodiyotga o'tish masalasi alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Jumladan, davlat rahbarining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "Kelgusi besh yillikda raqamli iqtisodiyotga o'tish biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo'ladi". Bu fikr, o'z navbatida, zamonaviy texnologiyalarning barcha sohalarga chuqur integratsiyasini ta'minlash zaruratini ifodalaydi.

Bu mulohazalar shuni anglatadiki, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha jabhalarida raqamli transformatsiyani jadallashtirish, mavjud tizimlarning zamonaviy raqamli vositalar bilan to'liq uyg'unlashuvini ta'minlash hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Raqamli texnologiyalarni chuqur joriy etish orqali samaradorlik, shaffoflik va ochiqlikka erishish, inson kapitali va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyati kengayadi. Shu boisdan ham raqamli iqtisodiy modelni shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarurati bugungi kun talabiga aylanmoqda.

Vazifalardan kelib chiqib, hunarmandchilikni raqamli transformatsiya jarayonini tashkil qilish uchun asosiy beshta strategik yo'nalish taklif etildi (1-jadval).

1-jadval. Hunarmandchilikda raqamli transformatsiya jarayonini tashkil qilishning asosiy strategik yo'nalishlari

Transformatsiya jarayonining strategik yo'nalishlari	Vazifalari
BIM texnologiyalarini hunarmandchilik infratuzilma ob'ektlarining hayot aylanish jarayonida qo'llash	-BIM asosida raqamlashtirish hunarmandchilik infratuzilmasi ob'ektlarining hayotiy siklining barcha jarayonlarini qamrab oladi, foydalanish va xizmatlar ko'rsatish sifatining oshishini ta'minlaydi;
Bigdata va sun'iy intellektga asoslangan umumiy "Tizimlar tizimini" shakllantirish	- hunarmandchilikning yagona yaxlit tizimini shakllantirish; -yaxlit tizim shahar infratuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlarni va boshqa bir qator ma'lumotlarni o'z ichiga oladi; - tadbirkorlikni boshqarish jarayonida katta ma'lumotlar texnologiyasi va sun'iy intellektdan foydalanish
Raqamli platformalar va IoT texnologiyasidan foydalanish	- hunarmandchilikni boshqarish va tadbirkorlik ob'ektlari datchiklaridan, shuningdek, hisoblagichlardan to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot olish jarayonida internet texnologiyasini joriy etish;
Hunarmandchilikni boshqarishda axborot-tahlil vositalarini qo'llash	- Axborot-tahlil vositalaridan foydalanishni kengaytirish, shu jumladan. fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish jarayonida matn va nutqni semantik tahlil qilish, ko'p o'lchovli statistik tahlil va murakkab voqealarni qayta ishlash;
Blockchain texnologiyasini amalga oshirish	-hunarmandchilik shaffofligini oshirish, raqamli bitimlar, hujjatlar, ovoz berish natijalarini o'tkazish, shuningdek kraudsorsing loyihalarini ishlab chiqish va bajarilgan ishlarni nazorat qilish uchun texnologiyadan foydalanish.

BIM (Building Information Modeling) — bu qurilish sohasi uchun mo'ljallangan zamonaviy texnologiyalardan biri bo'lib, u ko'p qatlamli (ko'p o'lchovli) ob'ekt modelini yaratish imkonini beradi. Ushbu model loyihaning faqat tashqi ko'rinishini emas, balki uning ichki tizimlari, materiallari, qurilish bosqichlari va foydalanishdagi funksiyalarini ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun BIMni oddiy 3D grafik proyeksiya deb baholash noto'g'ri yondashuv hisoblanadi. Bu texnologiya qurilishni boshqarish, xarajatlarni rejalashtirish, o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish va eng asosiysi — vaqt tejalishiga erishishda muhim vositadir. Axborot modellashtirish usuli qurilishning to'liq hayot siklini — sarmoya jalb qilish bosqichidan tortib, ekspluatatsiya va hatto buzilish jarayonigacha qamrab oladi. Shu bilan birga, BIM texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish dastlabki bosqichda ma'lum moliyaviy resurslarni talab qiladi, masalan, maxsus dasturiy ta'minot va texnik vositalar xarid qilish zarur. Biroq, uzoq muddatda ushbu xarajatlar loyihalash va qurilish xarajatlarni optimallashtirish hisobiga o'zini oqlaydi.

Big Data (katta ma'lumotlar) — bu tarkibi xilma-xil, hajmi nihoyatda katta va uzluksiz tushadigan raqamli ma'lumotlar majmuasidir. Bunday ma'lumotlar oqimini an'anaviy usullar yordamida qayta ishlash juda mushkul bo'lib, zamonaviy texnologik yondashuvlarni talab etadi. Big Data atamasi ilk bor 2008-yilda Clifford Lynch tomonidan "Nature" jurnalida qo'llanilgan bo'lsa-da, bunday hajmdagi ma'lumotlar undan oldin ham mavjud edi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, kuniga 100 gigabaytdan ortiq axborot oqimi katta ma'lumotlar toifasiga kiradi. Bunday ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish orqali inson sezgi imkoniyatidan tashqaridagi tendensiyalarni aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa tibbiyot, moliya, davlat boshqaruvi, ishlab chiqarish, transport, aloqa kabi ko'plab sohalarda ilg'or qarorlar qabul qilish va resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi.



IoT (Internet of Things, ya'ni "narsalar interneti") — bu turli jismoniy obyektlar: maishiy texnika, transport vositalari, sanoat uskunalari va boshqa qurilmalarni internet tarmog'i orqali bir-biriga ulovchi texnologiyadir. Bu tizimga ulangan har bir qurilma o'zida sensorlar, mikroprotessorlar, dasturiy ta'minot va boshqa elektron modullarni mujassamlashtirgan bo'ladi. IoT texnologiyasi yordamida qurilmalar mustaqil ravishda ma'lumot to'playdi, ularni tahlil qiladi va boshqaruv markazlariga uzatadi. Bu esa inson aralashuvini kamaytiradi, ish samaradorligini oshiradi va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi. 2021-yilga kelib IoT qurilmalarining umumiy soni 8,4 milliardga yetgan bo'lsa, 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 20 milliarddan oshishi kutilmoqda. Ushbu bozorning global qiymati esa 1,7 trillion AQSh dollariga tenglashishi prognoz qilinmoqda [9]. IoT texnologiyasi faqat telefon, noutbuk va planshetlardagina emas, balki ilgari internetga ulanmagan oddiy qurilmalarda ham qo'llanilmoqda — bu ularni "aqlli" qilish imkonini bermiqda.

Blockchain — bu ma'lumotlarni markazlashtirilmagan tarzda, ishtirokchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va ishonchli tarzda almashish imkonini beruvchi texnologiyadir. Eng keng tarqalgan qo'llanilishi kriptovalyutalar tizimida bo'lib, unda tranzaksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar blokklarga yoziladi va bu bloklar zanjir shaklida bog'lanadi. Asosiy ustunlik shundaki, blockchain tizimida yozilgan har qanday ma'lumotni keyinchalik o'zgartirish yoki qalbakilashtirish amalda imkonsiz hisoblanadi. Faqat moliyaviy operatsiyalar emas, balki huquqiy hujjatlar, shartnomalar, mol-mulk reyestrlari, ilmiy natijalar va hatto shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlari ham ushbu texnologiyada xavfsiz saqlanishi mumkin. Shunday qilib, blockchain — faqatgina raqamli valyuta bilan cheklanmagan, balki ishonch, xavfsizlik va shaffoflikka asoslangan universal ma'lumot almashinuvi tizimidir.

Natija. Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida iqtisodiy faoliyatni tubdan yangilovchi, ilg'or boshqaruv va xizmat ko'rsatish tizimlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylangan. Uning mazmuni mavjud iqtisodiy modelni raqamlashtirish orqali takomillashtirish, innovatsion texnologiyalar yordamida yangicha yondashuvlar yaratish, boshqaruvda inson omilini kamaytirish va shaffoflikni ta'minlashdan iborat. Raqamli texnologiyalarni faol joriy etish orqali iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni samarali boshqarish, davlat xizmatlarini yagona platforma orqali aholiga tezkor yetkazish imkoniyati yuzaga keladi.

Raqamlashtirishning zamonaviy konsepsiyasi har qanday axborotni raqamli formatga o'tkazish, uni tahlil qilish, saqlash va uzatishni yagona ekotizim asosida boshqarish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu texnologik yondashuv nafaqat xizmat ko'rsatishni soddalashtiradi, balki korrupsiya holatlarining oldini olish, soliq tushumlarini oshirish, budjet xarajatlarning ochiqqligini ta'minlash va fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Yetakchi xalqaro ekspertlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, raqamli iqtisodiyot mamlakat YAIM hajmini o'rtacha 30 foizga oshirish salohiyatiga ega. Shu bilan birga, bu jarayon yashirin iqtisodiy faoliyatni legallashtirish, noqonuniy bitimlar sonini kamaytirish hamda ijtimoiy xizmatlarda shaffoflikni kuchaytirish imkonini beradi. Bu kabi yondashuvlar zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotda raqamlashtirishning hal qiluvchi rol o'ynayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Bugungi kunda aholi kundalik ehtiyojlarini qondirishda tobora ko'proq raqamli imkoniyatlardan foydalanmoqda. Elektron do'konlar, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar orqali oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va xizmatlarga buyurtma berish odatiy holga aylangan. Aholi elektron to'lov tizimlariga ishonch bildirmoqda, biroq katta xaridlar yoki yirik moliyaviy bitimlarda hali ehtiyotkorlik sezilmoqda. Bu esa kelajakda o'rtacha va yirik tranzaksiyalarni ham raqamli vositalar orqali amalga oshirishga tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot doirasida shakllangan tushunchalardan biri — bu kriptovalyuta (masalan, bitcoin), blokcheyn texnologiyasi, mayning jarayonlari va elektron to'lov kartmonlari hisoblanadi. Odamlar o'zlari uchun qulay bo'lgan onlayn xizmatlar orqali tovarni tanlaydi, to'lovni raqamli platformalar orqali amalga oshiradi va yetkazib berish xizmatidan foydalanadi. Bunday soddalar jarayonlar orqali har birimiz raqamli iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylanmoqdamiz.

Maoshlarning plastik kartalar orqali to'lanishi, turli kommunal, mobil aloqa, internet, soliq va boshqa xizmatlar bo'yicha to'lovlarning mobil ilovalar orqali amalga oshirilayotgani, elektron deklaratsiyalar topshirilishi — bularning barchasi raqamli iqtisodiyotning kundalik hayotga chuqur kirib kelganini ko'rsatadi.

Bu tizim orqali iqtisodiy xarajalar kamayadi, mahsulot va xizmatlar haqidagi ma'lumotlarga tezkorlik bilan kirish mumkin bo'ladi, bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayadi va eng muhimi — iste'molchilar fikriga asoslangan mahsulotni jadal rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shu orqali yetkazib beruvchilar bozordagi talabni aniq tushunadi va unga tezda moslasha oladi.

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda faqatgina elektron savdo va xizmatlar bilan cheklanmay, balki sog'liqni saqlash, ta'lim, energetika, qishloq xo'jaligi, transport, geologiya, yer kadastrasi, arxiv xizmatlari kabi barcha sohalarda faol joriy etilmoqda. Har bir tarmoqda raqamli yechimlar xizmat ko'rsatish sifati, samaradorlik va nazoratning oshishiga olib kelmoqda. Davlat fuqarolar bilan bevosita raqamli platformalar orqali aloqaga chiqmoqda. Bunday transformatsiya korrupsiyaviy holatlar, norasmiy tovar aylanmasi va hujjat qalbakilashtirishlarning oldini olishda muhim mexanizmga aylanmoqda.



Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida 2024-yil 5-fevral kuni o'tkazilgan yig'ilishda tashqi savdoni boshqarish tizimini raqamlashtirish, bojxona va boshqa idoralarning faoliyatini avtomatlashtirish zarurligi qayd etilgan edi. Shuningdek, "risk tahlili" asosida ishlovchi elektron modullarni joriy etish, ruxsatnomalar va laboratoriya hujjatlarini to'liq raqamlashtirish, tovarlarning harakatini chegaradan tortib iste'molchiga yetgunga qadar yagona elektron tizim orqali kuzatish vazifalari belgilab berildi.

Shu o'rinda, davlat xizmatlarining 143 tasi elektron ko'rinishga o'tkazildi, 35 dan ortiq idoralarda hujjatlar soni kamaytirilib, xizmat ko'rsatish muddati ikki barobarga qisqartirildi. Budget xarajatlari, davlat xaridlari va ko'chmas mulk bitimlarida oshkorlik ta'minlandi. Bu kabi islohotlar natijasida raqamli iqtisodiyotning real ta'siri ijtimoiy hayotning barcha sohalarida sezilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda yurtimizda hunarmandchilik sohasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat tomonidan keng ko'lamli imkoniyatlar yaratilmoqda. Barcha hududlarda ushbu yo'nalishni rag'batlantirish maqsadida imtiyozlar, grantlar, yengillashtirilgan kreditlar va boshqa qulay shart-sharoitlar joriy etilgan. Ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida quyidagi bosqichlarga asoslangan kompleks yondashuv taklif etiladi:

- avvalo, hunarmandlar o'z faoliyatini rasmiylashtirib, yashab turgan hududdagi "Hunarmand" uyushmasiga a'zolik asosida ro'yxatdan o'tishlari lozim;
- keyingi qadam sifatida hunarmandlar tomonidan taqdim etilayotgan ijodiy va texnologik yangilikka ega biznes-loyihalarni moliyalashtirish masalasi ko'rib chiqiladi;
- natijada esa zamonaviy talablarga javob beruvchi, eksportbop va sifat jihatidan yuqori mahsulotlar ishlab chiqarishga sharoit yaratiladi.

Hunarmandchilik mahsulotlarini raqamli formatda saqlash, targ'ib etish va yetkazib berish tizimini shakllantirish orqali har bir viloyatda markazlashtirilgan "raqamli omborxona" tashkil etish rejalashtirilgan. Ushbu omborlarda mahsulotlarning tabiiy ko'rinishini yuqori sifatda tasvirga olish uchun zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan maxsus fotostudiyalar tashkil etiladi. Bunday yondashuv mahsulotlarni vizual jihatdan ham jozibador taqdim etishga imkon beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida hunarmandchilikni raqamlashtirish quyidagi ikki asosiy texnologik yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Grafik dasturlar orqali ichki bozor uchun vizual savdo maydonchalarini yaratish — bu yo'nalish orqali milliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar mamlakat ichkarisida xaridorlarga raqamli platformalar orqali taqdim etiladi.

2. Veb-platformalar orqali xalqaro bozorga chiqish — bu bosqichda mahsulotlar xorijiy mijozlarga mo'ljallangan elektron kataloglar va onlayn vitrinlar orqali yetkaziladi. Har ikki yo'nalishda mijozlarning fikr va talablariga asoslangan interaktiv tanlov tizimi ishlab chiqiladi.

Ushbu jarayonlarni samarali amalga oshirishda zamonaviy grafik dizayn va interyer modellashtirish dasturlari muhim rol o'ynaydi. Jumladan:

- Interior Design 3D dasturi — bu vosita hunarmandchilik mahsulotlarini turli xonalar va interyer makonlarida joylashtirishga mo'ljallangan. Foydalanuvchi mahsulot o'lchamini, rangini va joylashuvini o'zgartira oladi. Dastur 2D, 3D va "birinchi shaxs" formatlarida ishlash imkonini beradi;
- Home Design — bu dastur orqali foydalanuvchi devor, ship, eshik, deraza va boshqa elementlarni moslab, mahsulotlarning real makonda qanday ko'rinishini oldindan ko'ra oladi;
- Remplanner — bu ilova xonalar uchun individual interyer dizaynini yaratishga xizmat qiladi. U foydalanuvchiga makonning 3D modellarini yasash, bezak uslublarini tanlash, mahsulotlar o'rni va hajmini sozlash imkoniyatini taqdim etadi.

Yuqoridagi texnik yechimlar hunarmandchilik mahsulotlarini nafaqat vizual taqdim qilish, balki marketing, savdo va eksportga tayyorlash jarayonlarining samaradorligini ham sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, hunarmandchilik faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha taklif etilayotgan mexanizmlar nafaqat bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish, balki hududlar kesimida hunar va kasb madaniyatini jonlantirish, xalqaro miqyosda milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va hunarmandlarni global iqtisodiy tizimga integratsiya qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kotler P., Keller K.L. Marketing Management. — Pearson, 2016.
2. Evans D.S., Schmalensee R. Matchmakers: The New Economics of Multisided Platforms. — Harvard, 2016.
3. Kaplinsky R., Morris M. A Handbook for Value Chain Research. — IDRC, 2001.
4. UNESCO. Creative Economy Report. — Paris, 2013.



5. OECD. The Digital Transformation of SMEs. – Paris, 2019.
6. UNCTAD. Digital Economy Report. – Geneva, 2021.
7. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – T.: Iqtisodiyot, 2019.
8. Asqarova N.I. Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning ekonometrik modellari tahlili // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – 2024. – №11/2. 21-24 b.
9. Tursunov B.O. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – T.: Fan, 2020.
10. Rasulov A.A. Innovatsion iqtisodiyot va tadbirkorlik. – T.: Iqtisodiyot, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
